

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС



Последние  
новости

Последние  
образование

Последние  
исследование

И НОВЫЕ НАУКИ



*Международный современный научно-практический журнал*

**Научный импульс**

№ 27 (100)  
Ноября 2024 г.

**Часть 1**

Издаётся с августа 2022 года

Москва 2024

JISMONIY TARBIYA DARSALARIDA CHIRLIDING SPORT TURIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI Soliyeva Nargiza Normurod qizi	508
QUR'ON DUNYOQARASHI Ozodov Qudratulloh Bozorovich	513
ЦИРКУЛЯЦИЯ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ АРЕНЕ ПУТЁМ ВНЕДРЕНИЯ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС НОВЕЙШИХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ Сафронов Эльбек Олегович, Авезджанова Раиса Мулладжановна	517
ЗНАЧЕНИЕ ПРОЦЕССОВ ОКИСЛЕНИЯ ЛИПИДОВ ПЕРЕКИСИ В ПЕЧЕНИ ЖИВОТНЫХ, ПОРАЖЕННЫХ ЭХИНОКОККОЗОМ Вахидова А.М, Худоярова Г.Н	521
EVERGREEN PLANTS USED IN THE LANDSCAPE OF CITIES OF UZBEKISTAN (in the example of the city of Tashkent) Rustambekov Ismoilbek Otabek o'g'li	526
КАНАЛБҮЙИ ҲУДУДЛАРИНИ МЕЪМОРИЙ-ЛАНДШАФТ ТАШКИЛ ЭТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ М.А.Талипов, С.Маликов	530
MS EXCEL DASTURI ELEKTRON JADVALIDA CHIZIQLI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISH Quljanov Jahongir, Ahmedov Sadreddin	537
SPORTCHILARNI AXLOQIY-IRODAVIY VA RUHIY XISLATLARINI TARBIYALASH F.O. Atabekov	542
(ZnO) <sub>n</sub> (n=3÷6) NANOKLASTERLARINI STRUKTURAVIY VA ELEKTRON XOSSALARINI KVANT KIMYOVIY USULLARDA O'RGANISH Turayev B, Abduraimova M	546
TILSHUNOSLIK VA SEMIOTIKA Avazov Javohir Jamshidovich	552
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI Xalimova (Nizomidinova) M.O	557
MODELING SCHEMES OF LOGICAL ELEMENTS USING THE MULTISIM PROGRAM Shirinov G.M	565
RESEARCH AND SIMULATION OF ANALOG AND DIGITAL MODULATOR USING MATLAB/SIMULINK SOFTWARE ENVIRONMENT A.A. Yarmukhamedov, A.B. Jabborov	569
EXPERIMENTAL STUDIES ON ASSESSING THE OPTIMAL RECEPTION OF DIGITAL TELEVISION BROADCASTING SIGNALS IN THE DVB-T2 STANDARD A.A. Yarmukhamedov, A.B. Jabborov	573
FEATURES OF ASSESSING EMC CONDITIONS FOR 5G NETWORKS N.T. Baymatova	578
ФАКТОРЫ И ОСНОВНЫЕ ПАРАМЕТРЫ ДЛЯ МОДЕРНИЗАЦИИ ЦИФРОВОГО ТЕЛЕВИЗИОННОГО МОДУЛЯТОРА DVB-T2 Ярмухамедов Алишер Аббарови, Жабборов Алибек Ботиркул угли	581
INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOG, OILA VA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK Ziyotdinova Sarvinoz Sherzodbek qizi	588

## SPORTCHILARNI AXLOQIY-IRODAVIY VA RUHIY XISLATLARINI TARBIYALASH

**F.O.Atabekov**  
*CHDPU “Bolalar sporti” kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bo‘lajak sportchilarni ahloqiy-irodaviy va ruhiy xislatlarini tarbiyalash borasida asosli fikrlar keltirilgan bo‘lib, unda bugungi kunda soprt murabbiylari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar bayon etilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *sport, tarbiya, iroda, axloq, psixologiya, musobaqa, murabbiy, soprtchi, qobiliyat.*

**Abstract:** *This article gives a good idea to educate athletes about the moral and spiritual qualities of future athletes, as well as the information that is needed today by sports coaches.*

**Key words:** *sports, education, will, morality, psychology, competitions, coaching, soprtchi, skills.*

Yoshlarni jismoniy tarbiya sportga bo‘lgan qiziqishlarini hisobga olib, respublika hukumati tomonidan yoshlarimizni ta’lim-tarbiya olishlari, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugulanishlari, sog‘liklarini yaxshilashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Hozirgi kunda ko‘plab sportchi yoshlarimiz xalqaro musobaqalarda faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelishmoqda. Sport turlarida muvaffakiyatga erishish uchun sport turiga xos bo‘lgan jismoniy kobiliyatlarni takomillashtirishni emas, balki barcha jismoniy fazilatlarni rivojlantirishni talab etadi. Shu jumladan, sportchilarning ahloqiy-irodaviy va ruhiy xislatlarini tarbiyalash bugungi kunda dolzarb vazifalar sirasiga aylanayotgani xech kimga sir emas. Misol tariqasida turli xil axborot vositalari va internet saytlari orqali ko‘plab sportchilarning u yoki bu salbiy xususiyatlari yillar mobaynida topgan obro‘siga putr yetkazayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Buning asosiy sababi sportchilarni tayyorlashda murabbiylar tomonidan ularning faqat sport tayyorgarligiga e’ribor qaratib ularning ahloqiy-irodaviy va ruhiy xislatlarini tarbiyalash chetda qolib ketayotganini va bu jarayonda bo‘lajak sportchilarni quyidagi xislatlarni inobatga olib tarbiyalash maqsadga muvofiq.

Sportchining ma’naviy-iroda tayyorgarligi: Sportchining ma’naviy – iroda tayyorgarligi O‘zining pedagogik mohiyati jihatidan sport faoliyati sharoitiga moslab amalga oshiriladigan axloqiy tarbiya, irodani tarbiyalash jarayonidir. Sportchining ma’naviy – iroda tayyorgarligi jarayonida xal etiladigan vazifalar, sport faoliyatida axloqiy sifatlarni takomillashtirib borishdir. Vatanparvarlik tuyg‘ulari, jamoa g‘ururini himoya qilish, Vatan shuhratini dunyoga taratish, insoniy sifatlarni takomillashtirish, g‘alaba yo‘lida barcha imkoniyatlardan keng foydalana olish sifatlarini takomillashtirish ma’naviy iroda tayyorgarligini asosini tashkil etadi. Shu bilan birga ma’naviy iroda tayyorgarligida sportchilar xarakteri shakllanadi. Bu xarakter mexnatsevarlik, g‘alabaga astoydil intilish, etikasi, ruhiy iroda kabi axloqiy sifatlarni aks ettiradi.

Sportchi iroda sifatlarini to‘la namoyon etishni talab etadigan mardonavor faoliyat turidir. Kuchli iroda, maqsad sari intilish, tashabbus, talabchanlik, qat’iylik va jasurlik, chidamlilik va

o‘zi-o‘zini boshqarish sifatlarini tarbiyalash ma’naviy iroda tayyorgarligini ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Sportning barcha turida axloqiy sifatlar va ma’naviy tayyorgarlik bir xilda bo‘lishi kerak. Chunki har bir sportchida har xil darajada sportchilardan iroda tayyorgarligini talab etadi. Iroda fazilatlari namoyon bo‘lishi sport jarayonlarining konkret sharoitlariga bog‘lik bo‘lib irodaning turli tomonlarini namoyon bo‘lishini amalga oshiradi. Bu bilan umumiy va maxsus iroda tayyorgarligini bir – biridan farq qilinadi.

Iroda tayyorgarligi jarayonida bajariladigan maxsus vazifalarning eng muhimlaridan biri bevosita musobaqa uchun beriladigan ko‘rsatmalarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, musobaqalar davomida paydo bo‘ladigan salbiy emosiyalarni yengib o‘tish va sportchilarning psixik holatini boshqarish imkoniyatini ta’minlashdir. Sport turlarida ma’naviy iroda tayyorgarligi axloqiy tarbiyaning umumiy tamoyillariga muvofiq bo‘lib, axloqiy tarbiya vosita uslublaridan foyda- langan xolla tashkil etiladi. Sport turining ahamiyati ham muhim hisoblanadi. U sportchida iroda va xarakterni tarbiyalashda asosiy omil bo‘ladi. Qat’iy kun tarti- biga rioya qilish, og‘ir jismoniy yuklamalarga bardosh berish, salbiy xis – tuyg‘ularni yengib o‘tish, trenirovka va musobaqalar jarayonida ichki va tashqi qiyinchiliklar bilan kurashish sportchini irodaviy sifatlarni tarbiyalash va sport xarakterini shakllantirishning omili bo‘ladi. Sport faoliyatidagi sharoit ham ongli intizomni, do‘stlik, jamoatchilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va boshqa axloqiy xis- tuyg‘ular va sifatlarni tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Sportchini axloqiy - irodaviy tayyorlash o‘zining pedagogik mohiyati bo‘yicha sport faoliyati sharoitida qo‘llanilishiga qarab amalga oshiriladigan axloqiy va irodaviy tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Sport kuchli irodani talab qiladigan mashaqqatli va murakkab faoliyatdir. Kuchli iroda, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik va sabotlilik fazilatlarini tarbiyalash sportchini tayyorlashning ajralmas qismini tashkil qiladi. Sportchini tarbiyalash jarayonida quyidagi fazilatlarni rivojlantirish zarur:

- milliy g‘oyaga sadoqat, ijtimoiy faoliyatni o‘z shaxsiy ishidan yuqori qo‘yishga intilish, mehnat va Vatanparvarlikda o‘z sog‘ligi to‘g‘risida muntazam g‘amxo‘rlik qilish;
- jamoatchilikning amaliy faoliyatida qatnashish, sport mahoratini oshirish, turmush sharoitidagi xatti-harakati uchun oldida javobgarlikni xis qilish, ishga beparvo qarashga yo‘l qo‘ymaslik;

Sportchilarning yuqori axloqiy fazilatlari mehnatda, turli faoliyatda, xatti-harakatlarida, kishilar muomilasida shakllanadi va sport etikasini belgilashda manba bo‘lib hizmat qiladi. Sport etikasi bu sportchining o‘ziga xos faoliyatda (mashg‘ulot, musobaqa, ko‘rgazmali chiqishlarda) sportchi uchun majburiy bo‘lgan xatti- harakatlar normasi va qoidalarining yig‘indisidir. Sport etikasining asosi sport chiga qo‘yiladigan axloqiy talablardir. Ular musobaqalarning talablarida, nizom va dasturlarda qonunlashtirilgan: musobaqalarda sportchilar uchun bir xil sharoit yaratish, g‘oliblarni aniqlashda ob‘yektiv bo‘lish, raqib va hakamlarga nisbatan hurmatda bo‘lish, musobaqalarda xavfsizlikni ta’minlash, marosimlarga rioya qilish, sport musobaqalarini targ‘ibot va tashviqot qilishdir.

Bu talablar sportchilarimizda yuqori ongli intizomni, jismoniy komolotga erishish, sog‘likni mustahkamlash va ijodiy uzoq umr ko‘rish uchun kurashda sport mehnatsevarligini tarbiyalashga yordam beradi. Sportchilar yuqori sport yutuqlari va jahon rekordlarini

o‘rnitishda ularining kollektiv bo‘lib va aktiv kurashishlari orqali sportni xalkaro miqyosida o‘z bayrog‘ini baland tutishlari, yoshlarga o‘z sport tajribalarini o‘rgatishlari kerak. Bundan tashqari sport etikasi umuminsoniy fazilatlari: kamtarin, haqqoniy, to‘g‘ri so‘z, sof dil, xushmuomala bo‘lishni, raqibni hurmat qilish, hakamni ko‘rish yoki ko‘rmasligidan qat’iy nazar musobaqa qoidasiga rioya qilishni, hakam, tomoshabinlarni hurmat qilish va manmallikka berilmaslik fazilatlarining namoyon bo‘lishini talab etadi.

Sport mashg‘ulotlarida amalga oshirilgan etika normalari kishi xarakteriga xos bo‘lib qoladi. Sportchining o‘ziga xos xususiyati, qo‘llaniladigan vositalarning, mashg‘ulot shakllarining, tashqi muhit va mashg‘ulot sharoitining turli tumanligi – bularning hammasi shug‘ullanuvchilarning onggi, xissiyoti, irodasi va xatti harakatiga har jihatdan ta’sir ko‘rsatishiga imkon beradi. Ayniqsa harakat faoliyatidagi axloqiy tarbiyaga ahamiyati kattadir. Masalan, gimnastikada harakat faoliyati katiy izchillikni talab qiladi. Bu esa sportchidan o‘zini tuta bilish, va xissiyotlarini tiyishni majbur qiladi; balandlikda (brusslar, yakkacho‘p, turnik, xalqalarda) mashq qilganda dovyuraklik, dadillik, jasorat va zavq bilan shug‘ullanishni talab qiladi.

Xulosa tariqasida sportchilarni axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda o‘zini fido qilish, qarama-qarshilik sharoitida o‘z emosiyalarini boshqara bilish, aktiv bo‘lish, o‘zaro yordam ko‘rsatish, birodarlik, yagona maqsad sari intilishni talab qiladi. Ular sportchi kurashini maъlum bir kat’iy sharoitga qo‘yadi, sof intizomni talab etadi, haqqoniylik, sof dillik va mustaxkam xarakterni tarbiyalaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sadikova S., Azamatova D. Maktabgacha talimda markazlar faoliyatining pedagogik innovatsion klasteri //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 1138-1143.
2. . Azamatova CRAFTING EFFECTIVE LESSON OBJECTIVES: THE CORNERSTONE OF A HIGH-QUALITY EDUCATIONAL PROCESS // SAI. 2024. №B3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/crafting-effective-lesson-objectives-the-cornerstone-of-a-high-quality-educational-process> (дата обращения: 29.10.2024).
3. qizi O‘razaliyeva S. T., Ustayeva D. N. MAK TABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARDA SOG ‘LOM RAQOBATNI SHAKLLANTIRISH INTELEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 577-580.
4. qizi O‘razaliyeva S. T., qizi Atabekova U. B. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 556-559.
5. Axmadaliev B. TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA INOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 317-323.

6. Axmadaliev B. TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA INOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 317-323.
7. Axmadaliev B. TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA INOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 317-323.
8. Shukurllayev J. M., Yuldashov Z. S., Erkinova G. X. BASKETBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGALIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI //INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – С. 773-775.